
MAHALLA POSBONI – OSOYISH TALIK QALQONI

Viloyatimizda 1033 ta mahalla fukarolar yig'ini mavjud bo'lib, ulardan 1025 tasida "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi rahbarlari faoliyat ko'rsatadi.

Viloyat bo'yicha 51 nafar oliy, 616 nafar o'rta maxsus, 358 nafar o'rta ma'lumotli "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi rahbarlari mehnat qilyapti.

Akmaljon Ibrohimov Farg'ona politexnika institutini tamomlagach, 2014 yildan buyon Farg'ona shahridagi "Nodirabegim" MFY ga "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi rahbari bo'lib ishlamoqda.

Hududimizdagi Alisher Navoiy va Aeroport ko'chalarida 21 ta ko'p qavatli uylar va 2 ta yotoqxona mavjud bo'lib, 4150 nafar aholi istiqomat qiladi, shundan 1680 nafari voyaga etmaganlar. Farg'ona olimpiya zaxiralari kolleji, tennis korti, ministadionda yoshlar sportning 16 ta turi bo'yicha shug'ullanishlari mumkin, - deydi "Nodirabegim" MFY raisi Mohiraxon Mirzamahmudova. - Hududda tinchlik, osoyishtalikni ta'minlash, aholi orasida o'zaro totuvlik, mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlashda mahalla posboni Akmaljon Ibrohimov hamisha bizga elkadosh bo'lib kelmoqda.

Mahalla - Vatan ichra kichik vatandir. Yurt tinchligi ana shu mo''jaz maskan osoyishtaligi bilan bevosita bog'liq. Buni chuqur his qilgan Akmaljon Ibrohimov hudud profilaktika inspektori, mayor Shuhratjon Abdurahmonov, mahalla faollari, diniy ma'rifat, ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar bilan hamjihatlikda ish olib borishni odat tusiga kiritgan.

Bu hamjihatlik, mustahkam hamkorlik esa ijobiy samarasini bermoqda. Hududda jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlari yildan-yilga kamayib bormoqda. To'rt yildan buyon ayollar va voyaga etmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlik sodir etilmadi. 13 nafar spirtli ichimlikka ruju qo'ygan, 6 nafar qamoq jazosini o'tayotganlar bor. Ularning oilasi bilan har oyda ikki marotaba suhbat o'tkazilib, muammolar aniqlanib, bartaraf etilyapti. Diniy ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolgan shaxslar yo'q.

Mahalla posboni uchun hushyorlik juda muhim. O'zim xizmat olib borayotgan hududni besh qo'ldek yaxshi bilaman. Kim nima mashg'ulot bilan shug'ullanadi, mahallaga kimlar kelib, kimlar ketyapti, kim qaerga safarga ketdi, qo'yingki, barcha jarayonni nazorat qilishga vaqt, imkon topaman. Bu borada profilaktika inspektori menga yaqin ko'makdosh, -deydi A.Ibrohimov.

2014 va 2017 yillarda hududlarda tinchlik-osoyishtalik, xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarda ogohlik va faollikni oshirishda olib borayotgan samarali mehnatlari uchun hamda "Fuqarolar yig'inlarining eng namunali "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi rahbari" ko'rik-tanlovining shahar bosqichida 1-o'rin va birinchi darajali diplom bilan taqdirlandi. Mazkur tanlovning viloyat bosqichida esa sovrindorlar safidan joy oldi.

Matluba TOJALIEVA.

2017-11-06 10:52:58